

**2019-yilning yanvar - avgust oylarida
QURILISH ISHLARI**


Joriy yilning yanvar - avgust oylarida Qashqadaryo viloyatida jami 3 019,7 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil etdi. Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 472,0 mlrd.so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,7 % ga o'sish qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda jami qurilish ishlari hajmining 63,8 %i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,1 punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 119,1 % ni tashkil etgan holda 1 926,7 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,6 % punktga kamayib, 20,6 % ni tashkil etdi va 621,0 mlrd. so'm miqdori qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 87,2 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi (mlrd. so`m)



Hududlar kesimida qurilish ishlari tarkibida Qarshi shahrining qurilish korxonasi va tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari viloyat bo'yicha jami hajmning 29,4 % ni yoki 887,4 mlrd.so'mni tashkil qildi. Qarshi shahrida " **Hamkorbank Qarshi filiali** " ning foydalanishga topshirilishi, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ko'p qavatli turar-joylarning qurilishi jadal olib borilayotganligi mazkur hududdagi qurilish ishlarining katta hajm bo'lishini ta'minlamoqda.

Keyingi o'rinlarda esa, jami qurilish ishlarining 11,0 % Koson tumaniga tog'ri kelmoqda. Tumanda yirik qurilish korxonalari tomonidan qidiruv-burg'ulash ishlari amalga oshirilmoqda.

Hududlarda qurilish ishlarining o'sish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



○ yanvar-avgust 2019 y

Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati;

Shahrisabz shahrida (134,2 %) kuzatildi:

- Shahrisabz shahrida qurilish ishlarining asosiy qismi yirik korxonalar tomonidan bajarilgan qurilishlar hisobiga;

Qarshi shahrida (121,4 %) kuzatildi:

- Qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan qurilayotgan ko'p qavatli turar-joylar qurilishi hisobiga;


Koson tumani (113,8 %) kuzatildi:

- Qurilish ishlarining asosiy qismi yirik korxonalar tomonidan bajarilgan qurilishlar hisobiga;

Yakkabog' tumanida (106,8 %) qurilish ishlarining yuqori o'sishiga sabab:

- Tumanda asosan norasmiy sektorning oshishi hisobiga;

Hududlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan)



- G'uzor
 ● Dehqonobod
 ● Qamashi
 ● Qarshi t
 ● Koson
 ● Kitob
 ● Mirishkor
- Muborak
 ● Nishon
 ● Kasbi
 ● Chiroqchi
 ● Shahrisabz
 ● Yakkabog'
- Qarshi sh
 ● Shahrisabz sh



Hududlar kesimida jami qurilish ishlarining eng katta qismini Qarshi shahrining (29,4 %) ulushi tashkil qilmoqda. Bunday katta ulushga ega bo'lishi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ko'proq qurilish ishlari bajarganligi bilan izohlanadi.


Keyingi o'rinlarda esa Koson (11,0 %) va Qarshi (9,0 %) tumanlari bormoqda. Jami qurilish ishlaridagi eng past ulushga ega bo'lganlar, Mirishkor (2,3 %) hamda Nishon (2,2 %) tumanlaridir.



Qurilish ishlari hajmi

	Yirik qurilish tashkilotlari (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar va mikrofirmalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Norasmiy sektor (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qashqadaryo viloyati	472,0	121,7	1926,7	119,1	621,0	87,2
Qarshi sh	148,8	121,7	684,0	133,1	54,4	94,7
Shahrisabz sh	62,6	94,0	87,5	123,2	21,8	72,0
tumanlar:						
G`uzor	7,6	3,6 m	69,0	88,8	36,0	115,4
Dehqonobod	-	-	46,9	2,6 m	35,2	58,2
Qamashi	4,4	-	49,7	72,4	30,0	197,4
Qarshi	0,4	9,4	222,1	107,0	49,1	92,2
Koson	190,5	121,0	93,4	129,6	48,4	78,7
Kitob	4,3	155,0	124,2	118,0	93,9	87,8
Mirishkor	-	-	31,6	93,6	36,8	114,4
Muborak	19,8	83,6	107,7	106,2	17,1	118,7
Nishon	-	-	41,7	85,7	23,8	172,2
Kasbi	5,3	2,7 m	56,0	106,5	45,5	91,6
Chiroqchi	-	-	160,3	139,3	66,6	69,2
Shahrisabz	0,5	-	62,3	109,8	16,9	95,5
Yakkabog`	27,8	6,4 m	90,3	120,0	45,5	63,2

Hududlar kesimida qurilish ishlari



Joriy davrda ham jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 63,8 %ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning nisbatan yuqori ulushi Qarshi, Shahrisabz tumanlarida va Qarshi shahrida qayd etildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng past

ulushi esa Shahrisabz shahar hamda Koson tumaniga to'g'ri kelmoqda. Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 20,6 %i to'g'ri kelmoqda. Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning yuqori ulushi Dehqonobod (42,9 %) hamda Kasbi (42,6 %) tumanlarida kuzatildi. Eng past ko'rsatkich esa Qarshi shahrida (6,1 %) qayd etildi.



Binolar va inshootlarni qurish

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 3,4 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yilning shu davridagi ko'rsatkichga nisbatan 12,2% punktga ko'payib, 70,3 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 13,6 % punktga kamayib, 26,3 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 39,9 % ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,5 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 60,1 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 11,5 % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 10,7 % punktga kamaydi va 57,5 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga esa 42,5 % to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 10,7 % punktga ko'paydi.



← 2019 yil


■ Binolar va inshootlarni qurish ■ Fuqarolik obyektlarini qurish
■ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



← 2018 yil

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari 2208,1 mlrd.so'mni tashkil qildi. Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 376,8 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,4 % punktga ko'paydi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 434,8 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,2 % punktga ko'paydi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan ulushi)



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2860,0 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 94,7 foizini tashkil qildi. Shu jumladan mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 159,7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 5,3 foizini tashkil qildi.



Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

A.Isaev
(75) 221-32-47